

O'ZBEKISTON



MIGRATSIYA VAZIYATIGA OID HISOBOT 2024-YIL YANVAR-MART



Co-funded by
the European Union



Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development
and Cooperation SDC

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)
Global ma'lumotlar instituti (GDI)
Taubenstraße 20-22
10117 Berlin
Germaniya

IOM Toshkent
O'zbekiston, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Lomonosov ko'chasi, 4-uy, 100077
Tel: +998 71 266 74 41
Email: iomtashkent@iom.int

Eslatma

Ushbu hisobot Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan "Migratsiya sohasidagi tahlil va dasturlar uchun mintaqaviy dalillar" loyihasi va Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligining (SDC) "Mehnat migratsiyasi dasturi - Markaziy Osiyo" loyihasi doirasidagi natijalarning bir qismidir. Ushbu hisobot Yevropa Ittifoqi va Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligining moliyaviy ko'magida ishlab chiqilgan. Ushbu hisobotda bildirilgan fikrlar hech qanday tarzda yuqorida qayd etilgan donor tashkilotlarning rasmiy fikrini aks ettirmaydi.

Hisobotda bildirilgan fikrlar mualliflarga tegishli bo'lib, Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM) qarashlarini aks ettirmaydi. Hisobot davomida foydalanilgan belgilar va materiallar taqdimoti IOM tomonidan biron bir mamlakat, hudud, shahar yoki hududning yoki uning hokimiyat organlarining huquqiy maqomi hamda uning chegaralari yoki sarhadlari bo'yicha hech qanday rasmiy fikrini aks ettirmaydi.

IOM insonparvar va tartibli migratsiya migrantlar va jamiyatga foyda keltirishi tamoyilga sodiqdir. Hukumatlararo tashkilot sifatida IOM xalqaro hamjamiyatdagi hamkorlari bilan quyidagi maqsadlarda ishlaydi: migratsiya boshqaruvi muammolarini hal qilishda yordam berish; migratsiya masalalarini oldindan tushunish; migratsiya orqali ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish; migrantlar insoniy qadr-qimmatini va farovonligini himoya qilish.

Ushbu hisobotda kiritilgan har qanday ma'lumotlar va axborotdan foydalanishda quyidagi iqtibos keltirilishi talab qilinadi: "Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM), 2024-yil mart, MTM Migratsiya vaziyatiga oid hisobot, IOM, O'zbekiston." DTM axborot mahsulotlaridan foydalanish shartlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi havolaga murojaat qiling: <https://dtm.iom.int/terms-and-conditions>.

© 2024 Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)

Qo'shimcha ma'lumot uchun MTM jamoasi bilan bog'laning

✉ mtmuzbekistan@iom.int

f [Facebook.com/iomuzbekistan](https://www.facebook.com/iomuzbekistan)

📷 [instagram.com/iomuzbekistan/](https://www.instagram.com/iomuzbekistan/)

🌐 dtm.iom.int/uzbekistan

MUNDARIJA

I. Mobillikni kuzatish matritsasi haqida	4
II. Kirish	4
II.I. Metodologiya	4
II.II. Hisobot qamrov darajasi	4
1. Xalqaro va ichki migrantlar ko'lamini va oqimi	5
2. O'zbekistonga doimiy yashash uchun migratsiya	6
3. O'zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun emigratsiya	7
4. O'zbekistondan chet elga mehnat migratsiyasi	7
5. O'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy davlatlar	8
6. Iqlim o'zgarishi va migratsiya	11
7. Noqonuniy migratsiya	11
8. O'zbekistonga pul o'tkazmalari	12
9. Migratsiya ma'lumotlari bo'yicha IOM malaka oshirish sessiyalari	12
III. Qisqartmalar	13
IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	14



I. MOBILLIKNI KUZATISH MATRITSASI HAQIDA

Mobillikni kuzatish matritsasi (Mobility Tracking Matrix- MTM) IOMning Global ko'chishni kuzatish matritsasi (Displacement Tracking Matrix- DTM)¹ asosidagi vosita bo'lib, aholi mobilligini kuzatish va tahlil qilishga qaratilgan. MTM mobil aholining harakatchanligi va zaifliklari haqidagi ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi. Ushbu vosita tizimli ravishda ushbu aholi ehtiyojlari to'g'risida yaxshiroq ma'lumotlarni asosiy qaror qabul qiluvchilarga yetkazish va tarqatish imkonini beradi.

II. KIRISH

Ushbu hisobot 2024-yilning yanvar-mart oylari uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistondagi migratsiya muammolariga oid jarayonlar bo'yicha mavjud so'nggi ma'lumotlarni taqdim etadi va jamoatchilikka ochiq bo'lgan milliy va xalqaro ma'lumotlar to'plamidan olingan ma'lumotlar asosida migratsiya jarayonlariga qaratilgan qiyosiy tahlillarni taqdim etadi. Hisobot mamlakatdagi migratsiya vaziyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgan so'nggi yirik global va mintaqaviy voqealarni o'z ichiga oladi. Hisobotda Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi 2022-yildan buyon mintaqadagi an'anaviy migratsiya yo'laklariga ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, mehnat migratsiyasi oqimining o'zgarishi, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq migratsiyaning kuchayishi, o'sib borayotgan urbanizatsiya jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, noqonuniy migratsiyaning kuchayishi va boshqa muhim voqealar insonlar mobilligi va migratsiya harakatining asosiy omili sifatida tavsiflanadi.

II.I METODOLOGIYA

IOM statistik ma'lumotlarni to'pladi va qayta ishladi hamda O'zbekistondagi mavjud ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlillarni ishlab chiqdi. Tadqiqot va tahlil uchun manba sifatida adabiyotlar sharhlari, milliy va xalqaro tashkilotlar, milliy tadqiqot markazlari va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun dolzarb bo'lgan mualliflarning nashrlari tanlab olindi.

Hisobotda asosiy ma'lumotlar manbalari quyidagi tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat);
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB);
- Tegishli davlat organlarining, shuningdek migrantlar boruvchi davlatlar tashkilotlari hisobotlari;
- Tegishli xalqaro tashkilotlarning hisobotlari;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi (UNHCR);
- Jahon banki guruhi (JBG).

II.II HISOBOT QAMROV DARAJASI

Hisobotda O'zbekistondagi migratsiya jarayonlari bilan bog'liq oldingi hisobotlarda yoritilgan eng dolzarb mavzularga e'tibor qaratishda davom etiladi. Hisobotda mavjud ikkilamchi manbalardan foydalangan holda xalqaro va ichki migratsiya ko'lami, doimiy yashash maqsadidagi migratsiya va emigratsiya oqimlari, O'zbekistondan chetga mehnat migratsiyasi, o'zbekistonlik migrantlar boruvchi asosiy mamlakatlar, iqlim o'zgarishi va migratsiya muammolari, noqonuniy migratsiya, chet eldan pul o'tkazmalari va boshqa mavzular yoritiladi. Ma'lumotlarning cheklanganligi (1) ko'rsatilgan davr uchun ba'zi ma'lumotlarning mavjud emasligi, (2) boshqa ma'lumotlar bilan mos kelmasligi va nomutanosib guruhlariga ajratilishi yoki (3) jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan metodologiyalar tufayli kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan manbalarga murojaat qiling.

¹ [Displacement Tracking Matrix website, 2023](#)




1. XALQARO VA ICHKI MIGRANTLAR KO'LAMI VA OQIMI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat) asosiy milliy statistika organi sifatida ichki va xalqaro migratsiya oqimlari bo'yicha so'nggi ma'lumotlarni taqdim etadi. Oldingi hisobotlarda qayd etilganidek, mazkur hisobotda keltirilgan O'zStat ma'lumotlari boshqa manbalardan olingan ma'lumotlardan yig'ish davri va atamalar ta'rifidagi tafovutlar tufayli farq qilishi mumkin.

Ko'chib kelish migratsiyasi bir hududga chet eldan va O'zbekistonning boshqa viloyatlaridan ko'chib kelganlar sonidan iboratdir. O'zStatning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-aprel holatiga mamlakat aholisining umumiy soni qariyb 37 million kishiga yetgan. 2024-yilning yanvar-mart oylarida ro'yxatga olingan ko'chib kelish migratsiya oqimi 56,2 ming kishini tashkil etgan va ularning 31,6 mingini ayollar (56.2%) va 24,6 mingini erkaklar (43.8%) tashkil etgan. Bu 2023-yilning xuddi shu davridagi (1-chorak) ro'yxatga olingan ko'chib kelish migratsiya oqimiga (51,5 ming kishi) deyarli o'xshash bo'lib, 8.3 foizlik biroz o'sish qayd etdi. 2024-yilning 1-choragida ro'yxatga olingan ko'chib kelish migratsiyasida qishloqdan shaharga 42,1 ming kishi (75%), shahardan qishloq joylariga esa atigi 14,1 ming kishi (25%) ko'chib o'tgan (O'zStat, 2024-yil; 2023-yil).


1-rasm. 2023-yil 1-choragi va 2024-yil 1-choragidagi ko'chib kelish migratsiyasi (mutlaq raqamlar va foiz)



Manba: O'zStat, 2024-yil

Ko'chib ketish migratsiya oqimi mamlakat ichida va mamlakatdan tashqariga ko'chib ketuvchilar sonini nazarda tutadi. 2024-yilning 1-choragida ro'yxatga olingan ko'chib ketish migratsiyasi oqimi 58,2 ming kishini tashkil etdi – 32,5 ming nafar ayollar (55.9%) va 25,7 ming nafar erkaklar (44.1%). Bu 2023-yilning 1-choragidagi ko'chib ketish migratsiya oqimiga (54,6 ming kishi) nisbatan to'qqiz foizga o'sishni ko'rsatdi. 2024-yilning 1-choragida qayd etilgan ko'chib ketish migratsiyasida shaharlardan 32,5 ming kishi (55.9%), qishloq joylaridan esa 25,7 ming kishi (25.7%) ko'chib ketdi (O'zStat, 2024-yil; 2023-yil).

2-rasm. 2023-yil 1-choragi va 2024-yil 1-choragidagi ko'chib ketish migratsiyasi (mutlaq raqamlar va foizlar)




Manba: O'zStat, 2024-yil

Oldingi [hisobotlarda](#) qayd etilganidek, ichki migratsiya jarayonini kuzatish tizimlari, birinchi navbatda, mamlakat ichidagi doimiy yashash joylaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarga tayanadi. O'zStat ma'lumotlari asosida 2024-yil 1-choragida mamlakat ichida bir hududdan ikkinchi hududga 55,614 kishi ichki migratsiyani amalga oshirganligini ko'rish mumkin. Bu 2023-yil 1-choragida qayd etilgan ichki migratsiyaga (50,537 kishi) nisbatan qariyb 1.5 foizga ko'pdir (O'zStat, 2024-yil; 2023-yil).



3-rasm. 2023-yil 1-choragi va 2024-yil 1-choragidagi ichki migratsiya (mutlaq raqamlar)




Manba: O'zStat, 2024-yil

BMT Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil oxirida O'zbekistonda asosan Afg'onistondan kelgan 9,405 nafar qochqin va 22,496 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lgan (UNHCR, 2024-yil). O'zbekiston BMTning Qochqinlar bo'yicha konvensiyasiga a'zo emas, shu sababli Afg'oniston fuqarolari qochqin sifatida emas, balki vaqtinchalik xorijiy rezident sifatida ro'yxatga olingan. Biroq, BMT agentliklarining O'zbekistondagi Mamlakat guruhi (UNCT) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning mart oyiga kelib afg'on qochqinlarining haqiqiy soni ularning aksariyati o'tgan davr ichida O'zbekistondan uchinchi davlatlarga tark etgani ortidan 3,000 nafargacha kamaygan bo'lishi mumkin (UNCT, 2024-yil).

2. O'ZBEKISTONGA DOIMIY YASHASH UCHUN MIGRATSIYA

2024-yilning 1-choragida O'zbekistonga doimiy yashash uchun kelgan migrantlar soniga nisbatan (914 kishi) deyarli 37 foizga kamdir. 2024-yilning 1-choragida doimiy yashash uchun kelgan migrantlarning asosiy qismini Rossiya Federatsiyasi fuqarolari (210 kishi yoki 37.4%), undan keyingi o'rinlarda Qozog'iston (123 kishi yoki 21.9%), Tojikiston (63 kishi yoki 11.2%), Qirg'iziston (45 kishi yoki 8%), va boshqa mamlakat (120 kishi yoki 21.5%) fuqarolari bo'lgan. Jinsiy tarkibiga ko'ra ularning 52,6 foizini (295 kishi) ayollar va 47,4 foizini erkaklar (266 kishi) tashkil etgan (O'zStat, 2024-yil; 2023-yil).

4-rasm. O'zbekistonga mamlakatlar bo'yicha doimiy yashash uchun kelgan migrantlar soni, 2023-yil 1-choragi va 2024-yil 1-choragi (mutlaq raqamlar)




Manba: O'zStat, 2024-yil



3. O‘ZBEKISTONDAN CHET ELGA DOIMIY YASHASH UCHUN EMIGRATSIYA

2024-yilning 1-choragida O‘zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun ko‘chib ketgan shaxslar soni 2,586 nafarni tashkil etdi. Bu 2023-yilning shu davridagi emigrantlar soniga nisbatan (4,063 kishi) deyarli 36 foizga kam ko‘rsatgichdir. 2024-yilning 1-choragida ro‘yxatga olingan O‘zbekistondan eng yuqori emigratsiya Qozog‘istonga bo‘lib (2,125 kishi yoki 82.2%), undan keyingi o‘rinlarda Rossiya Federatsiyasi (357 kishi yoki 13.8%), Qirg‘iziston (22 kishi yoki 0.9%), Koreya Respublikasi (20 kishi yoki 0.8%), Turkmaniston (8 kishi yoki 0.3%) va boshqa mamlakatlar (54 kishi yoki 2%) qayd etilgan. Jinsiy tarkib nuqtai nazaridan, erkak va ayol emigrantlar orasida muvozanatli nisbat kuzatilib, ularning 1,323 nafari erkaklar (51.2%) va 1,263 nafari ayollar (48.8%) bo‘lgan (O‘zStat, 2024-yil; 2023-yil).

5-rasm. O‘zbekistondan chet elga doimiy yashash uchun borish mamlakatlari bo‘yicha emigratsiya ko‘lami, 2023-yil 1-choragi va 2024-yil 1-choragi (mutlaq raqamlar)



Manba: O‘zStat, 2024-yil

Eslatma: 2023-yilning 1-choragida Koreya Respublikasi bo‘yicha ma‘lumotlar hamda 2024-yilning 1-choragida Tojikiston bo‘yicha ma‘lumotlar mavjud emas, shu sababli ikki davlat ham jadvalda “Boshqa davlatlar” ostida ko‘rsatilgan.

4. O‘ZBEKISTONDAN CHET ELGA MEHNAT MIGRATSIYASI

Mehnat migratsiyasi mamlakatdagi migratsiyaning asosiy omili bo‘lib qolmoqda, chunki O‘zbekiston hukumati xorijda ishlashni xohlovchi O‘zbekiston fuqarolarining xavfsiz, muntazam va tartibli mehnat migratsiyasini ta‘minlash borasidagi sa‘y-harakatlarini davom ettirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga (TMMA) 100 ming nafar ishchi va xorijiy tillarni biladigan malakali kasb egalarini tashkillashtirilgan tashqi mehnat migratsiyasi uchun tayyorlash bo‘yicha topshiriq bergan edi (Prezident matbuot xizmati, 2024-yil). Shundan so‘ng, TMMA 2024-yilda Germaniyada xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda 50,000 ta bo‘sh ish o‘rinlari uchun tanlov o‘tkazishini e‘lon qildi, jumladan, hamshira, yuk mashinasi haydovchisi, yuk mashinalari va qishloq xo‘jaligi texnikasiga texnik xizmat ko‘rsatish, mehmonxona boshqaruvi, restoran, ish, turizm, hunarmandchilik, mexatronika, qurilish va boshqa sohalar (TMMA, 2024-yil (a)). 2024-yil mart oyida TMMA 2024-yilda Koreya Respublikasida 37,000 ga yaqin ish o‘rinlari uchun tanlov asosida 100,000 ga yaqin kishi jalb etilishini e‘lon qildi. Ishga qabul qilingan mehnat migrantlari ishlab chiqarish (22,248 kishi), qishloq xo‘jaligi (6,858 kishi), xizmat ko‘rsatish sohasi (5,403 kishi) va qurilish (2,898 kishi) sohalarida ish bilan ta‘minlanadi (TMMA, 2024-yil(b)).



5. O‘ZBEKISTONLIK MIGRANTLAR BORUVCHI ASOSIY DAVLATLAR

ROSSIYA FEDERATSIYASI


Rossiya Federatsiyasi 2022-yil fevralidan buyon Ukrainadagi harbiy harakatlari tufayli Rossiya Federatsiyasiga nisbatan joriy etilgan iqtisodiy qiyinchiliklar va sanksiyalarga qaramay, O‘zbekistondan ketayotgan mehnat migrantlari uchun asosiy boriluvchi davlat bo‘lib qolmoqda. Rossiya Federatsiyasining asosiy statistika organi Federal davlat statistika xizmati (Rosstat) so‘nggi bir yarim yil davomida migrantlar bo‘yicha rasmiy statistik ma‘lumotlarni e‘lon qilmagan bo‘lsa-da, ayrim taxminiy raqamlar ommaviy axborot vositalarida manbalarida mavjud. Unga ko‘ra, 2024-yil boshida O‘zbekistondan kelgan migrantlar soni qariyb ikki million kishiga yetdi, bu Rossiya Federatsiyasidagi Markaziy Osiyodan kelgan migrantlarning eng katta guruhidir (Vedomosti, 2024-yil).

Ushbu hisobot davrida Rossiya Federatsiyasidagi xorijiy mehnat migrantlarining ahvoli 2024-yil 22-mart kuni Moskva viloyatining Crocus city savdo majmuasida sodir bo‘lgan fojiali voqea tufayli sezilarli darajada o‘zgardi. Ushbu hodisani sodir etishda Tojikistondan kelgan bir guruh migrantlar ayblandi, bu esa nafaqat tojik migrantlari, balki Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan barcha migrantlar umumiy ahvoliga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Mazkur voqeadan so‘ng ommaviy axborot vositalarida Rossiya Federatsiyasining yirik shaharlarida Markaziy Osiyo davlatlaridan kelgan migrantlarga nisbatan kamsitish holatlari haqida xabarlar paydo bo‘ldi (Diplomat, 2024-yil).

QOZOG‘ISTON

Qozog‘iston o‘zbekistonlik migrantlar uchun ikkinchi eng yirik migratsiya yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Qozog‘iston Milliy xavfsizlik qo‘mitasi ma‘lumotlariga asoslanib mahalliy ommaviy axborot vositalari bergan xabarga ko‘ra, 2024-yilning 1-yanvaridan 10-maygacha qadar mamlakatga 1 million 598 ming 656 nafar O‘zbekiston fuqarosi kirib kelgan bo‘lib, ushbu davrdagi eng ko‘p kelganlar guruhi hisoblanadi (Tengri, 2024 yil). Qozog‘iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi Milliy statistika byurosi (QozStat) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning 1-choragida O‘zbekistondan doimiy yashash maqsadida Qozog‘istonga 2,137 kishi kelgan, bu 2023-yilning 1-choragida Qozog‘istonga xuddi shu maqsadda kelgan migrantlar sonidan (1,948 nafar) 8.8 foizga ko‘pdir. O‘zbekistonlik migrantlar 2024-yilning 1-choragida doimiy yashash maqsadida Qozog‘istonga kelgan barcha chet el fuqarolarining 28,6 foizini (7,471 kishi) tashkil etgan (QozStat, 2024-yil).

Figure 6. Qozog‘istonda doimiy yashash ruxsatnomasiga ega bo‘lgan o‘zbekistonlik migrantlar soni, 2023-yil 1-choragi va 2024-yil 1-choragi (mutlaq raqamlar va foiz)




Manba: QozStat, 2024-yil



TURKIYA RESPUBLIKASI

Turkiya Respublikasi Migratsiya boshqaruvi raisligi (MBR) raisligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil mart oyi holatiga ko'ra, Turkiya Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan o'zbekistonlik migrantlar soni 55,303 nafarni tashkil qilgan. Bu 2023-yilning shu davridagi yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan o'zbekistonlik migrantlar soniga nisbatan (58,359 kishi) nisbatan 5,2 foizga kam ko'rsatgichdir. Yashash ruxsatnomasi egalari soni biroz kamayganiga qaramay, o'zbekistonlik migrantlar hali ham Turkiya Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan barcha migrantlarning 4,9 foizini tashkil qiluvchi yetakchi o'ntalikda qolmoqda. Yashash uchun ruxsatnomalar qisqa muddatli yashash uchun ruxsatnoma, oilaviy yashash uchun ruxsatnoma, talaba ruxsatnomasi, uzoq muddatli yashash uchun ruxsatnoma, gumanitar ruxsatnoma va odam savdosi qurbonlari uchun yashash ruxsatnomasi kabilarni o'z ichiga oladi (MBR, 2024-yil(a)).

7-rasm. Turkiya Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan o'zbekistonlik xalqaro migrantlar soni, 2023-yil 1-choragi va 2024-yil 1-choragi (mutlaq raqamlar)




Manba: MBR, 2024-yil

KOREYA RESPUBLIKASI

Koreya Respublikasi Adliya vazirligining Koreya immigratsiya xizmati (KIX) ma'lumotlariga asosan 2024-yil mart oyi holatiga ko'ra Koreya Respublikasida istiqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolari soni 89,902 nafarni tashkil etib, mamlakatdagi barcha chet el fuqarolari (2,594,936 kishi) orasida 3,5 foiz ulush bilan eng yuqori beshinchi guruh bo'lgan. Bu 2023-yil mart oyi oxiridagi mamlakatdagi o'zbekistonlik migrantlar soniga (81,567 nafar) nisbatan qariyb 9,3 foizga oshganini ko'rsatadi (KIX, 2024-yil).

8-rasm. Koreya Respublikasida istiqomat qiluvchi o'zbekistonlik migrantlar soni, 2023-yil mart va 2024-yil mart (mutlaq raqamlar)




Manba: KIX, 2024-yil



Shu bilan birga, 2024-yil mart oyi holatiga ko'ra, yashash uchun ruxsatnomaga ega o'zbekistonlik migrantlar soni 56,408 nafar yoki mamlakatdagi barcha o'zbekistonlik migrantlarning 62,7 foizini tashkil qilgan. Bu 2023-yilning shu davriga nisbatan (50,351 kishi) deyarli 11 foizga yuqori ko'rsatgichdir. Shuningdek, bu davrda qisqa muddatli yashash ruxsatnomasiga ega o'zbekistonlik migrantlar soni 5,716 nafarni tashkil etib, bu 2023-yil mart oyida qisqa muddatli yashash ruxsatnomasiga ega o'zbekistonlik migrantlar soniga (5,903 nafar) nisbatan 3,2 foiz kamayganini ko'rish mumkin (KIX, 2024-yil).

Bundan tashqari, 2024-yil mart oyi holatiga ko'ra, O'zbekiston fuqarosi bo'lgan koreys millatiga mansub migrantlar soni 43,335 nafarni yoki mamlakatdagi barcha o'zbekistonlik migrantlarning 48,2 foizini tashkil etgan. Bu 2023-yil mart oyi oxiriga nisbatan (35,493 kishi) O'zbekiston fuqarosi bo'lgan koreys millatiga mansub migrantlar sonining qariyb 18 foizga oshganini ko'rsatdi (KIX, 2024-yil).

9-rasm. Koreya Respublikasida istiqomat qiluvchi o'zbekistonlik etnik koreyslar va doimiy yashash ruxsatnomalari egalari, 2023-yil mart (foiz)



Manba: KIX, 2024-yil

2024-yil mart oyi oxirida Koreya Respublikasidagi o'zbekistonlik talabalar soni 13,442 nafarni tashkil etib, bu mamlakatdagi barcha xalqaro talabalarning (241,513 kishi) 5,5 foizini tashkil etgan. Bu davrda Koreya Respublikasida tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni 2023-yilning shu davriga nisbatan (12,251 kishi) 8.9 foizga oshgan (KIX, 2024-yil).

YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI

Yevropa Ittifoqi (Yel) mamlakatlarida yashash huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarolari soni haqidagi so'nggi mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil 31-dekabr holatiga ko'ra 40,406 nafar o'zbekistonlik migrant bunday huquqqa ega bo'lgan hamda hisobot tayyorlangan vaqtda bunday ma'lumot 2023-yil va 2024-yilning 1-choragi uchun hali yangilanmagan edi (Yevrostat, 2023-yil(a)).

2024-yilning oxiriga kelib Yevropa Ittifoqi hududini tark etish to'g'risida buyruq yuborilgan O'zbekiston fuqarolari soni 3,790 nafarni tashkil etgan. Ularning aksariyati shu davrda Shvetsiya (895 kishi) va Latviyada (840 kishi) istiqomat qilgan (Yevrostat, 2023-yil(b)). 2024-yilning 1-choragida O'zbekiston fuqarolarining Yevropa Ittifoqi davlatlaridan boshpana so'rab murojaatlari soni 310 tani tashkil etib, ularning aksariyati (225 ta ariza yoki 75%) Shvetsiyada qabul qilingan. Shu bilan birga, 2023-yilda O'zbekiston fuqarolarining boshpana so'rab murojaat qilishlari umumiy soni 1,165 ta arizaga teng bo'lgan edi va bu arizalarning ham asosiy qismi (700 ta ariza yoki 60%) ham Shvetsiyada ro'yxatga olingan (Yevrostat, 2024-yil).



6. IQLIM O'ZGARISHI VA MIGRATSIYA

2024-yil boshida Migratsiya ma'lumotlar portali (MMP) boshqaruv paneli insonlar mobilligi bilan bog'liq oltita iqlim xavf-xatarlarning kelajakdagi global prognozlarini namoyish etdi: issiq to'lqinlar, qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari, daryo toshqini, tropik siklonlar va hosil yetishmovchiligi. Yuqori isish prognozlari shuni ko'rsatadiki, 2030-yilga kelib Markaziy Osiyoda issiq to'lqinlari xavfiga duchor bo'lgan shaxslar soni 322 ming kishini tashkil etishi mumkin. Shuningdek, hosil yetishmasligi 68,3 ming kishi, daryo toshqinlari 16,3 ming kishi va o'rmon yong'inlari xavfi 149 ming kishiga xavf tug'irishi mumkin. Ushbu prognozlarning ta'siriga O'zbekiston hududi kiradi. Ushbu o'zgarishlarning oqibatlarini esa mamlakatdan migratsiya oqimini oshirishi mumkin (MMP, 2024-yil).

Markaziy Osiyo va O'zbekistonda so'nggi 30 yillikda havo harorati sezilarli darajada ko'tarilib, global o'rtacha ko'rsatkichdan ikki baravarga oshib ketdi. So'nggi 50 yil ichida mintaqada muzliklar yuzasi 30 foizga qisqardi. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirining maslahatchisi Suna Parkning mahalliy ommaviy axborot vositalariga bergan bayonotga ko'ra, iqlim o'zgarishi nafaqat qishloq xo'jaligi samaradorligiga, balki aholi salomatligiga ham tahdid soladi, bu esa to'yib ovqatlanmaslik va yuqumli kasalliklarga moyillikning oshishi kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin (Kursiv, 2024-yil).

Iqlim omillarini hisobga olgan holda, mamlakatda xavfsiz, muntazam va tartibli migratsiya yo'llarini qurish muhimroq bo'ladi. IOMning Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Zeynal Hajiyevning 2024-yil yanvar oyida mahalliy ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida ta'kidlaganidek, tashqi migratsiya ichki migratsiyadan oshib ketishi mumkin, shuningdek yashil texnologiyalar migrantlar iqlim o'zgarishiga moslashishiga yordam berishi mumkin (Gazeta, 2024-yil).

7. NOQONUNIY MIGRATSIYA

Oldingi [hisobotlarda](#) ta'kidlanganidek, O'zbekistondagi xalqaro noqonuniy migrantlar soni haqidagi ma'lumotlar rasmiy manbaalar mavjud emas. Biroq 2024-yilning 1-choragida o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar holatlari migrantlar boruvchi asosiy mamlakatlarda qayd etilgan.

MBR ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil boshidan 2024-yilning 4-apreliga qadar politsiya tomonidan qo'lga olingan Turkiya Respublikasidagi o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soni 2,503 nafarga yetgan. 2023-yilning 1-choragidagi noqonuniy migrantlar soniga nisbatan (1,204 kishi) noqonuniy migrantlar soni deyarli ikki baravar oshgan (MBR, 2024-yil (b)).

Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil oxiriga kelib, Yel mamlakatlarida noqonuniy tarzda istiqomat qilayotgani aniqlangan O'zbekiston fuqarolari soni 3,425 nafarga yetgan. Ularning aksariyati Germaniya (345 kishi), Latviya (635 kishi) va Polshada (485 kishi) qayd etilgan. Biroq 2024-yilning 1-choragi uchun ma'lumotlar hisobot tayyorlanayotgan vaqtda mavjud emas edi (Yevrostat, 2023-yil (c)).

KIX so'nggi yillik hisobotiga ko'ra, Koreya Respublikasi hududidagi o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar soni 2023-yil oxiriga kelib 8,812 nafarni tashkil etgan. 2024-yilning 1-choragi uchun ma'lumotlar hisobot tayyorlanayotgan vaqtda mavjud emas edi (KIX, 2024-yil (a)).

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh) Bojxona va chegara xizmati ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning oktabridan 2024-yilning mayigacha bo'lgan davrda AQSh janubiy chegarasini noqonuniy tarzda kesib o'tishga 57,200 nafar migrantlar urinishgan va ularning besh foizi (2,900 kishi) o'zbekistonlik bo'lgan. Shu bilan birga, AQShning O'zbekistondagi elchixonasi 2024-yil mart oyida AQSh-Meksika chegarasini noqonuniy kesib o'tgan va chegarachilar tomonidan qo'lga olingan 74 nafar o'zbekistonlik migrant AQShdan O'zbekistonga deportatsiya qilinganini ma'lum qilgan (AQSh elchixonasi, 2024-yil).




2023-yilning 1-choragida Lotin Amerikasi mamlakatlarida O'zbekistondan AQShga yo'l olgan noqonuniy migrantlar bilan bog'liq holatlar ham qayd etilgan. Gonduras Milliy migratsiya instituti (GMMI) ma'lumotlariga ko'ra, 256 nafar o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar (185 nafar erkak va 71 nafar ayol) 2024-yilning 1-choragida mamlakatda qayd etilgan. Bu 2023-yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatgich past bo'lib, o'tgan yili shu davrda 1,408 nafar o'zbekistonlik noqonuniy migrant (1,232 nafar erkak va 176 nafar ayol) ro'yxatga olingan (GMMI, 2024-yil). Shuningdek, Meksika Statistika idorasining Migratsiya siyosati boshqarmasi (MSB) 2024-yilning 1-choragida Meksikada 1,079 nafar o'zbekistonlik noqonuniy migrant qayd qilinganini ma'lum qilgan. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan (563 kishi) mamlakatda qayd etilgan o'zbekistonlik noqonuniy migrantlar sonidan deyarli ikki baravar ko'pdir. (MSB, 2024-yil).

8. O'ZBEKISTONGA PUL O'TKAZMALARI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB) ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-choragida mamlakatga pul o'tkazmalari tushumi 2,5 milliard AQSH dollariga teng bo'lib, 2023-yilning shu davrdagi pul o'tkazmalari oqimiga nisbatan 8.6 foizga ko'pdir (2,3 AQSh milliard dollari). Shu bilan birga, umumiy pul o'tkazmalari ulushida Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istondan yuborilgan pul o'tkazmalarining ulushi 84 foizgacha, Rossiya Federatsiyasining o'zidan yuborilgan pul o'tkazmalari oqimining ulushi esa 68 foizgacha kamaygan. Ta'kidlash joizki, Rossiya Federatsiyasidan O'zbekistonga yuborilgan pul o'tkazmalari ulushi umumiy pul o'tkazmalari ulushida so'nggi yillarda kamayib, 2022-yilda 87 foiz, 2023-yilda esa 78 foizni tashkil etdi (MB, 2024-yil).

10-rasm. O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi va pul o'tkazmalari manbalarining mamlakatlar bo'yicha ulushi, 2023-yilning 1-choragi va 2024-yilning 1-choragi (AQSh milliard dollari va foiz)



Manba: MB, 2024-yil

9. MIGRATSIYA MA'LUMOTLARI BO'YICHA IOM SESSIYALARI

2024-yilning boshida, IOM tomonidan O'zbekistonda insonlar mobilligi bo'yicha migratsiya ma'lumotlari taqdiqoti yakunlandi. Mazkur bir martalik tadqiqot 2023-yilda migratsiya va inson mobilligi bo'yicha mavjud manbalarni aniqlash maqsadida o'tkazildi. Tadqiqot tegishli davlat tashkilotlari, rivojlanish guruhlar va O'zbekistondagi BMT agentliklari ma'lumotlarini qamrab oldi. Ushbu tadqiqot asosan migratsiya ma'lumotlaridagi bo'shliqni aniqlashga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlar yetishmayotgan yoki to'liq bo'lmagan jihatlarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot yakunidan so'ng 2024-yilning 27-fevralida IOM tomonidan O'zbekistondagi tegishli davlat tashkilotlari ishtirokida tadqiqot hisobotini taqdim qilish maqsadida maslahatlashuv uchrashuvi o'tkazildi. Ushbu maslahatlashuv uchrashuvi insonlar mobilligi, ko'chish migratsiyasi va qaytish migratsiyasi bilan bog'liq ma'lumotlar bo'shlig'ini bartaraf etish bo'yicha dasturiy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qildi. Tadqiqot hisoboti olingan tavsiyalar asosida yakunlanib, IOM tomonidan tegishli davlat tashkilotlariga yuborildi.



III. QISQARTMALAR

IOM	Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot
AQSh	Amerika Qo'shma Shtatlari
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
BKQV	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi
JBG	Jahon banki guruhi
GMMI	Gonduras Milliy migratsiya instituti
IIV	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
KIX	Koreya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Koreya immigratsiya xizmati,
MB	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
MBR	Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Migratsiya boshqarmasi raisligi
MMP	Migratsiya ma'lumotlari portali
MTM	Mobillikni kuzatish matritsasi
MSB	Meksika Statistika boshqarmasi
QozStat	Qozog'iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi qoshidagi Milliy statistika byurosi
RosStat	Rossiya Federatsiyasining Federal davlat statistika xizmati
TMMA	O'zbekiston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi
UNHCR	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi
O'zStat	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
UNCT	BMT agentliklarining O'zbekistondagi mamlakat jamoasi
Yel	Yevropa Ittifoqi
Yevrostat	Yevropa Ittifoqi statistika platformasi



IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

AQShning O'zbekistondagi elchixonasi

2024 [O'zbekiston fuqarolarining AQShdan deportatsiyasi](#), AQSh elchixonasi sayti

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissarligi (UNHCR)

2024 [Qochqinlar haqida ma'lumotlar bazasi](#), UNHCR veb-sayti

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Mamlakat jamoasi (UNCT)

2024 BMT Mamlakat jamoasi ichki yig'ilishi hisoboti

Diplomat

2024 [Crocus City Hall hujumidan oldin va keyin](#), Diplomat axborot agentligi

Gonduras Milliy migratsiya instituti (GMMI)

2024 [Muntazam migrantlar oqimi](#), GMMI veb-sayti

Gazeta

2024 [IOM vakolatxonasi rahbari bilan intervyu](#), Gazeta axborot agentligi

Koreya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Koreya immigratsiya xizmati (KIX)

2023 [Migratsiya bo'yicha yillik hisobot](#), KIX veb-sayti

2024 [Immigrantlar va chet ellik migrantlar statistikasi](#), KIX veb-sayti.

Kursiv

2024 [Iqlim o'zgarishi iqtisodiyotga qanday ta'sir qiladi?](#), Kursiv axborot agentligi sayti

Meksika Statistika idorasining Migratsiya siyosati boshqarmasi (MSB)

2024 [Meksikadagi noqonuniy migratsiya holati](#), MSB veb-sayti

Migratsiya ma'lumotlari portali (MMP)

2024 [Iqlim o'zgarishlari ta'siri](#), MMP sayti

Tengri

2024 [Qozog'istonga qaysi fuqarolar tez-tez tashrif buyurishadi?](#), Tengri axborot agentligi

Turkiya Respublikasi Migratsiya boshqarmasi raisligi (MBR)

2023 (a) [Yashash uchun ruxsatnomalar](#), MBR sayti

2023 (b) [Noqonuniy migratsiya](#), MBR sayti.

Qozog'iston Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi huzuridagi Milliy statistika byurosi (QozStat)

2024 [Qozog'iston Respublikasi aholisi migratsiyasi](#), QozStat sayti.

Vedomosti

2024 [Rossiya Federatsiyasidagi mehnat migrantlari](#), Vedomosti axborot agentligi sayti



Yevropa Ittifoqining Statistika boshqarmasi (Yevrostat)

2023 (a) [Fuqarolik bo'yicha yashash ruxsatiga ega bo'lgan barcha chet elliklar](#), Yevrostat sayti.

2023 (b) [Yel hududini takr etish buyurilgan uchinchi davlat fuqarolari](#), Yevrostat sayti.

2023 (c) [Yel hududida noqonuniy istiqomat qilayotgan migrantlar](#), Yevrostat sayti.

2024 [Boshpana so'rab murojaat qilgan migrantlar](#), Yevrostat sayti.

O'zbekiston Respublikasining Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA)

2024 (a) [O'zbekiston fuqarolari uchun Germaniyada 50,000 ta ish o'rinlari](#) , TMMA Telegram press-relizi

2024 (b) [Koreya Respublikasida 37 000 ish o'rni uchun 100,000 kishi saralanadi](#) , TMMA Telegram press-relizi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (MB)

2024 [2024-yil 1-choragi uchun pul-kredit tahlili](#), MB sayti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati

2024 [Prezidentning TMMAGA tashqi mehnat migratsiyasi oid farmoyishi](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat)

2023 [O'zbekistondagi demografik holat – 2023-yil yanvar- mart \(Dastlabki ma'lumotlar\)](#), O'zStat sayti.

2024 [O'zbekistondagi demografik holat – 2024-yil yanvar- mart \(Dastlabki ma'lumotlar\)](#), O'zStat sayti.



Co-funded by
the European Union



Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development
and Cooperation SDC